

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari.....	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 299.53

MUSOXONHOJA DAHBIDIY ASARLARIDA XOJAGON-NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAGI G'OYALARNING QIYOSIY TAHLILI

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИДЕЙ УЧЕНИЯ ХОДЖАГОҢ-НАКШБАНДИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ МУСОХАНХОДЖИ ДАХБИДИЙ

COMPARATIVE ANALYSIS OF IDEAS IN THE KHOJAGON-NAQSHBANDIY DOCTRINE IN THE WORKS OF MUSOKHANKHOJA DAHBIDIY

Yuldashxodjaev Haydar Hashimxanovich 

Yangi asr universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining yirik vakili Musoxon Dahbidiy tomonidan naqshbandiya ta'limotidagi rashhalarining talqin etishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqida so'z boradi. Dahbidiy o'z asarlarida Naqshbandiya ta'limotidagi "sayr", "majzub", "jazba", "zikr", "rashhalar" masalalari keng yoritilgan. Shuningdek pirlik-shayxlik maqomi mutasavvif alohida e'tibor qaratgan jihatlardan bo'lib, u bu darajani "eng mukammal maqom" deydi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются своеобразный подходы видного представителя ордена Накшбандия-Муджаддида Мусахана Дахбиди к толкованию рашахат в учении Накшбандия. В своих трудах Дахбиди подробно освещал вопросы «сайр», «маджзуб», «джазба», «зикр» и «рашахат» в учении Накшбандия. Статус пир-шейха также является одним из аспектов, которому учёный уделяет особое внимание, и он называет этот уровень «самым совершенным статусом».

Abstract

This article examines the unique approaches of a prominent representative of the Naqshbandi order, Mujaddidi Musakhan Dahbidi, to the interpretation of rashahat in the Naqshbandi teachings. In his works, Dahbidi has covered in detail the issues of "sayr", "majzoob", "jazba", "dhikr" and "rashahat" in the Naqshbandi teachings. The status of pir-sheikh is also one of the aspects that the scholar pays special attention to, and he calls this level "the most perfect status".

Kalit so'zlar: hadis, shariat, sufiy, irfon, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abu Bakr Kalobodiy, nihoya, bidoya, nafs, mushohada, tajalliy

Ключевые слова: предания, шариат, суфий, ирфан, Ходжа Юсуф Хамадани, Абу Бакр Калабади, конес, начало, душа, наблюдения, преображение.

Key words: hadeeth, sharia, sufi, irfan, Khoja Yusuf Hamadani, Abu Bakr Kalabadi, end, beginning, soul, observations, transformation.

KIRISH

Buyuk allomalarimizning ilmiy-nazariy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish yoshlarni etuk shaxs sifatida shakllanishida hamda ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun "biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"[1].

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'fiylar tasavvufning islom shariatiga asoslanganligiga urg'u berib, tariqat yo'lidan oldin shariat bosqichidan o'tilishini ta'kidlab o'tganlar. Tadqiqotchilari A.Saidov tasavvufga "islom shiariati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi oliyjanob fazilatlarini o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilish" [2] deb ta'rif beradi. Shariat va tariqatni tahlil qilib, shariat islomning zohiri bo'lsa tasavvuf esa uning botiniy ehtiyojlarini ifodalaydi degan xulosani beradi.

Tasavvufning nafaqat amaliy balki, nazariy masalalariga e'tibor ham qaratilib, barcha diniy-irfoniy ilmlarga ega bo'lgan mutasavviflar shug'ullanganlar. Bularga Abu Bakr Kalobodiy (917-995

uu), Mustamliy Buxoriy (vaf.1043 u), Hujviri (vaf.1073 u), Abdul Hamid G'azzoliy (1058-1116 uu), Abdulqodir Jiyloviy, Ibn Arabiy (1165-1240uu) kabilarni ko'rsatish mumkin.

Xojagonlar tariqatini davom ettirgan Abdulholiq G'ijduvoniyo Xoja Yusuf Hamadoniyni to'rtinchi xalifalari bo'lgan. Tariqatni Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboi Samosiy, Hazrat Amir Kulol davom ettirganlar. Bahouddin Naqshband ushbu ta'limotni har jihatdan mukammallashtirib, naqshbandiya tariqatiga asos soldi^[3]. Mazkur ta'limot XIV asrdan to shu kunlarga tasavvuf ahli orasida hukm surib kelmoqda.

Naqshbandiya ta'limoti mavjud bo'lgan jamoa ma'lum makon va zamonda o'z ta'sirini qoldirgan. Naqshbandlar jamoasi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotga, madaniyat va san'atga, arxitektura va hunarmandchilik taraqqiyotiga ta'sir o'tkazgani tabiiy.

Naqshbandiya tariqati xalqni tenglikka, birlikka, intizomga, diyonatga, ilmga intilishga va harakatchan bo'lishga, islom diniga bo'lgan e'tiqodini kuchaytirishga chaqiradi. Shuning uchun ham Bahouddin Naqshband majmuasini obod etish va diniy-axloqiy qarashlarini targ'ib qilish uchun hukumatimiz rahbarlari alohida e'tibor berib kelishmoqda. Komil insonni tarbiyalashdagi o'rni bilan bu tariqat olim va fozillarni voyaga etkazgan.

Musoxonxoja Dahbidiy Naqshbandiya tariqatining tadrijiy bosqichlarini tahlil qilib, uning boshqa tariqatlardan ustunligini ta'kidlaydi. "Bu yo'lining nihoyasi bidoyatdir. Ammo mashoyixlarning tariqatlari boshqachadir. Agar biror kishi ba'zi mashoyixlarning iboralarida quyidagi silsila (zanjir) bo'libdurki, sifotda sayr etmoq zotda sayr etmoqdan keyin voqe bo'ladi desa, to'g'ri aytgan bo'ladi. Chunki ularning nihoyasi boshqalarning bidoyasida mundarijdir".

Boshqa silsilalarda "ibtido"ni "ofoqiy sayr"dan boshlaydilar va maqomotlarning har qaysisida uzun umrning o'nlab yilini sarflaydilar. Ko'pincha shunday bo'ladiki, yo'l yiroqligidan Do'stga (ya'ni Allohga – H.Yu.) eta olmay yo'lda qoladilar. Ularni "nihoyat"ga etkazish, asl maqsad bo'lgan "sayri anfusiy" gacha taraqqiy etishlari uchun esa vaqt etishmaydi. Bu akobirlar (ulug'lar)ning "sayr" suhbatlarida ro'y beradigan hodisalar boshqalarga ma'lum emas, maqom uzoq yillar mobaynida muyassar bo'ladi: "Chunki suluki muqaddam (ustun) bo'lgan tolibning jazabasida mujohada qiyinchiliklarining to'sqinligi bor. Tolib xolis niyat va rost maqsad yo'lini tutadi, yoinki Haq jazabasi uning qo'lidin tutib, ulug' zotga topshiradi. Bu payt majzublik sifati sharofati bilan soliki sharaf maqomiga yuzlanadi. Ammo u bilan buning o'rtasida farq kattadir. Mahbubdan muhibgacha va muroddan muridgacha bo'lgan farq muayyandir. Muhib avjining nihoyasi, agar u muyassar bo'lsa, Mahbubning dahliziga qadar bo'ladi. Yoinki bu borada shunday javob beramizki, Naqshbandiya akobirlarining "nihoyat"i doimiy zotiy tajalliydirki, u o'zgalarga yashin tezligiday hodisadir... Hazrati Xojai Buzurg (ulug' Xoja) raziyallohu anhu, ul zotdan Alloh rozi bo'lsin aytibdurlarki, Haq subhonahu va taolodan eng yaqin va Haqqa etishtiradigan yo'lni so'radim. Va bu so'ragan narsam ketma-ket oshkora bo'ldi. Chunki uzundan-uzoq yo'lda juda ko'p ko'ngilsiz voqealar va qiyinchiliklar mavjud. Bu yo'l "sayri ofoqiy"dir. Uni "sayri mustaqil" ham deyidilar va g'oyat uzoq va behosil (natijasiz)dir. "Sayri anfusiy" zaminidagi "sayri mustadid" esa yaqindan-yaqindir. U mahbubiyat vositasida va jazaba kuchi bilan bosib o'tiladi. Bu yo'l albatta mavsuldir".

Musoxon Dahbidiy sulukning maqomlaridan biri bo'lmish jazbaga alohida urg'u beradi. Uning bu boradagi qarashlari Bahouddin Naqshbandning ikkinchi xalifasi Xoja Muhammad Porso haqidagi: "Men uni ikki tariqa jazba va suluk birla tarbiya qildim"[4], – degan so'zlariga mos keladi.

Faqr-javhar, ajib xislatli odamlarning mohiyatini belgilaydigan sifat. Alisher Navoiyning Samarqanddan Sayyid Hasanga yuborilgan maktubida ikki xil solik haqida fikr berib, Ilohdan jazba tekkan kishini "majzubi solik", avvalida jazba tekkan bo'lmasa ham, lekin pirga taslim bo'lib, uning rahbarligida jazba hosil qilgan odamni "soliki majzub" deb keltiradi[5].

Musoxon Dahbidiy tariqat yo'liga kirgan soliklarni quyidagi to'rt guruhga bo'lib tasnif etadi:

- soliki mujarrad;
- majzubi abtar (mujarrad);
- soliki majzub;
- majzubi solik.

Mutasavvif ta'limotida soliki mujarrad, shayxlik salohiyatiga ega emas va u maqomga etmaydi, chunki uning nafsi sifatleri o'z holidadir va mahbusdir. Muomala va riyozat maqomiga etishgan darajasi rivoj topmaydi, uning holi noto'g'ri hayollar bilan bog'lab qo'yilgan bo'ladi. Majzubi mujarrad ham shayxlik qobiliyatiga ega emas. Chunki Haq subhonahu ba'zi muhiblarni uning siyrat nazaridan yiroqlashtirgan bo'ladi. Natijada aniq bo'lgan dalillarni mushohada qilolmaydi. Asar deb

FALSAFA

ataladigan muomala tariqida ham shayxlik maqomiga etmagan, uning mujohada muomalasi bilan qo'lga kiritgan holi mahfuzdir.

Uchinchi guruhga mansub solik shayxlik va iqtido salohiyatiga ega shaxs sanaladi. Uning zohiri “shariat odoblari bilan ko'rkamlashgan”, botini esa “mujohada va salohiyat zavarlari bilan jilvalangan”, u tariqat yo'lini xolis niyat bilan tanlagan va hatto o'zini “riyosat o'chog'ida shu qadar toblaganki, mis vujudi sof oltinga aylangan”. Lekin bu toifadagi solik ham hali kamolga etisholmaydi, muallif ta'biri bilan aytganda, “o'z holatida mahbusdek” ko'rinadi.

To'rtinchi guruh esa “shayxiyat va iqtidodagi eng mukammal” maqomdir. Bunda solik qalbi butkul dunyodan uzilib, boricha “Parvardigor azza va jalla muhabbati bilan to'ladi va Uni istaydi”.

Xumuliyni aytishicha, Musoxonxoja Dahbidiy muridning holatiga qarab ularga ikki yo'ldan birini buyurgan. Ko'pincha “majzubi solik”ni “ijmol” va “soliki majzub”ni “tafzil” yo'li bilan tarbiya qilgan[6]. Musoxon Dahbidiyning bunday tarbiya usuli Bahouddin Naqshbandning: “Ixtiyor bizda, agar xohlasak, tolibga jazba orqali ta'sir qilamiz, agar xohlasak, suluk orqali ta'sir qilamiz. Pir bu hoziq tabib, muridni holiga muvofiq bo'lgan davoni qiladi”[7], – degan fikrlariga mos keladi. Demak, Musoxon Dahbidiy naqshbandiya tariqati namoyondalarining solikni tarbiyat etishdagi “metodik usullar”ga tayangan holda ularga o'z yondoshuvlarini ham singdiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Naqshbandiyya ta'limotining asosini “Rashhalar” yoki tasavvuf vakillarining so'zi bilan aytganda “qudsiy kalimalar” tashkil etadi. Rashhalarga Xoja Abduxoliq G'ijduvoni tomonidan tamal toshi qo'yilgandir: “... Quyidagi ushbu sakkiz qudsiy kalimalar ham hazrati Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya tegishlidir va hazrati Xojagoni oliysha'nlar tariqasining binosi (asosi) ushbu shartlardir: birinchi “hush dar dam” (har nafasda ogoh bo'lish), ikkinchi “nazar bar qadam” (qadamni nazorat qilish), uchinchi “safar dar vatan” (vatanda sayr qilish), to'rtinchi “xilvat dar anjuman” (anjumanda xoli bo'lish), beshinchi “yod kard” (yodda olish), oltinchi “bozgasht” (qayta o'tish, takrorlash), ettinchi “nigoh dosht” (nigoh solish), sakkizinchi “yoddosht” (yodda tutish)[8].

Navbatdagi uch rashha “vuqufi zamoniyy”, “vuqufi qalbiyy” va “vuqufi adadiyy” Bahouddin Naqshband tomonidan asos solingan Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta'limotidagi eng asosiy xizmatlaridan biri vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosida qo'ydi. Uning tarixiy xizmatlaridan biri “Vuqufi zamoniyy” – “Zamon, vaqt dan ogohlik” rashha – hayotbaxsh o'g'itlarini Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyili sifatida kiritdi[9].

“Rashhalar” tasavvuf namoyanari tomonidan keng talqin va tahlil etilgan va bu borada kitob va risolalar bitilgan. Jumladan, Musoxon Dahbidiyning ulug' bobokaloni, Xojagon-Naqshbandiya tariqatining pirlaridan bo'lgan Maxdumi A'zam Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy (1463-1542) o'zining “Risolai chahor kalima” (“To'rt kalima haqida risola”) sida tariqatning o'n bir usulidan asosiy to'rt kalima batafsil tushuncha beradi.

Musoxon Dahbidiy naqshbandiya ta'limotining vakili sifatida mazkur rashhalarni birma-bir tahlil qiladi va ularni sharhlashda o'ziga xos fikrlarini bayon qiladi. Mutasavvif har bir rashhani Qur'oni karim, hadisi sharif va mashhur so'fiy shayxlar tomonidan izohlangan dalillar asosida isbotlashga harakat qiladi.

Birinchi **hush dar dam**. Buning ma'nosi shuki, ichdan chiqadigan har bir nafas huzur va ogohlik bilan bo'lsa va g'aflat unga yo'l topmasa.

Bu xususda Maxdumi A'zamning fikrlari ham aynan shunday: “Ya'ni nafas olganda ham, nafas chiqarganda ham, hatto shu ikkala vaqt oralig'ida ham doimo hushyor bo'lishlik, g'aflat uyqusida qolmaslikni nazarda tutadi”[11].

Bahouddin Naqshband ogohlikka hamma erda, xususan taom eyishda rioyatni shart, deganlar. Agar darveshlardan bir kishi luqmani g'aflat ichra eguchi bo'lsa, Bahouddin darhol ularni shafqat va tarbiyat qilib aytardi: «Bir luqmani g'aflat bilan ema. Agar bir taom g'azab, karohat va dushvorlik bilan tabaq bo'lgan bo'lsa, uni egin demaymiz». O'zlari ham mudom shunga amal qilganlar. G'adyut degan joyda u kishi ularga keltirgan ta omni emaydilar va aytadilarki: – «Bizga bu taomni eyish mumkin emas. Bunga sabab shuki, u g'azab bilan pishirilgandir». Bahouddin mudom shogirdlariga ta'kidladilarki, agar taomning bir kapgiri g'azab va karohat bilan pishirilgan bo'lsa, bizlar emaymiz. Har ishki, g'azab va nafrat qa rohat va dushvorlik bilan bo'lsa, unda hayru barakat yo'qdur, havoyi nafs va shayton unga yo'l bo'lishadir. Hosili a'moli hasana taomi haloldadir, uni g'aflatda emaymiz.[9]

Hazrat Bahouddin Naqshband «hush dar dam»ni shunday izohlaganlar: Banoi kor dar in roh bar nafas meboyad kard, chunonki, ishtig'ol ba vazifa ba hama zamonu hol, az tafakkuri mozi ba tafakkuri mustaqbil mashg'ul gardonad, nafasro naguzaronand va dar xuruj va duxuli nafas be xifzi mobayni nafas sa'y namoyad, ki bo g'aflat furu' naravadu bar naoyad». Maz muni: «Barcha ishlarning asosi nafasdadir. Yo'l yuruvchi ishida harakat qilishi lozimki, zamonning muhim vazifasi bilan shug'ullanishda xayolni o'tmishdan va fikrni kelajakdan ozod etsin va har bir nafasni zoe etmas likka urinsin. Nafasning kirishi, chiqishi va ikki nafas o'rtasini extiyot qilsinki, nafas g'aflat bilan kirib chiqmasin»[9]

Ko'rinib turibdiki, Musoxon Dahbidiy rashhalarni izohlashda aynan Bahuddin Naqshband yondashuvini qabul qilgan va shunga munosib fikrlar bildirgan.

Ikkinchi. **Nazar bar qadam.** Bu shundayki, yo'l yurganda (tariqat yo'li nazarda tutiladi), diqqatu e'tibor qadamga yo'lnaltirilgan bo'lishi kerakki, turli-tuman hissiyotlar bilan parokanda bo'lmasin, jam'iyatga yaqinroq bo'lsin. Ibtidoda dil nazarga tobedir va dilga parishonlik ta'sir qiladi.

Musoxon Dahbidiyning asar yozishdagi o'ziga xos bo'lgan uslubi shundaki, u doimo ilmda e'tiborli bo'lgan shaxslardan iqtiboslar keltirish bilan fikrlarini quvvatlantiradi. Bu o'rinda ham shunday. Aytadi: "Hazrati Mujaddidi alfi soniy(qad.ruhahu) "nazar dar qadam" borasida debdurlar: "Bu solik sayrining sur'atiga ishoradir-"borlik" masofalarini qayd etish, xudparastlik uqubat(azob)laridan xalos bo'lish sur'atiga ishoradir. Ya'ni Nazari qaysi bir joyga muntahiy bo'lsa, darrov(filhol) o'shanga qadam qo'ysin".[12] Bu iqtibosni keltirilishiga sabab, Dahbidiy rashhadagi "qadam" kalimasini tariqatdagi yo'l deb izohlayapti. Ahmat Sirhindiy esa uni "solik sayrini sur'ati" deb sharhlayapti. Demak tushunchalarda farqli jihatlar bor.

Mavlaviy Jomiy quddisa sirruhu Xo'ja Buzruk qad.sirrahu haqida deyдилar:

Bayt:

Kam zada behamdamii hush dam,
Dar naguzashta nazarash az qadam.
Baski zi hud karda ba sur'at safar,
Boz namonda qadamsh az nazar.[13]

Tarjimasi:

Hushyorliksiz biror nafas am olmagan,
Nazari qadamidan o'zga erda bo'lmagan.
U o'zligidan sur'at bilan safarga ketgan,
Har bir qadami nazaridan xoli bo'lmagan.[12]

Uchinchi. **Safar dar vatan.** Buning ma'nosi shuki, solik bashariy tabiati bilan safar qiladi, ya'ni bashariy sifatlardan malakiy sifatlarga va zamima sifatlardan hamida sifatlarga intiqol qiladi (ko'chadi) Shayx Miyon Ma'sum (qaddasallohu sirrahu) aytibdurlarki, safar dar vatan anfusiy sayrdan iboratdirki, uni jazaba ham deyдилar. Buzrukvorlarning muhtadiy (tariqaga yangi kirgan kishi, solik) bilan boshlang'ich (ilk) muomalasi shu sayrdan boshlanadi. Va soliklarning ofoqiy sayri shundan iboratdir va bu sayr zimnida qat' etiladi (bosib o'tiladi). Boshqa silsilalarda ham ishga kirishuvni ofoqiy sayrdan boshlaydilar. Va intiho anfusiy sayrgacha bo'ladi. Va anfusiy sayrdan ishga kirishuv ushbu tariqaning xususiyatidir.[13]

Bu rashhaning talqinidagi fikrlarda ham umumiylik va xususiylik jihatlarini ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan Maxdumi A'zam: "Ya'ni bu yo'lda solik turadi. Nimaiki unga ijobat kilingan bo'lsa shu orkali Alloh vasliga erishadi. Chunki safar qilishdan maqsad-bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chish (begonalashish) va bog'lanishdir" –degan bo'lsa, Xoja Ali Romitaniy: **"Uzmoq va bog'lamoqdur"**[14] – deb izoh bergan.

Bir qarashda barcha fikrlarda ko'chish, sayr qilish ma'nolari bor. Lekin Dahbidiy ko'chish deganda "bashariy sifatlardan malakiy sifatlarga va zamima (yomon) sifatlardan hamida (maqtagan) sifatlarga ko'chishni nazarda tutadi. Ya'ni, solikning sayli yoki ko'chishida makon emas balki maqom, sifatdan sifatga ko'chish ko'proq nazarda tutilyapti. Endi Xoja Aliy Romitoning fikrlariga kelsak, unda makonni ham sifatni ham tushunib olish mumkin bo'ladi. Ya'ni, solik bir joydan uzilib ikkinchi bir joyga bog'lanadi yoki yomon sifatlardan uzilib, maqtoqli, yaxshi sifatlarni o'zida mujassam qiladi.

Va bidoyatda (sayri ofoqiyda) nihoyatga imdiroq etish (yuksalib borish) ushbu ma'nodadir. Boshqa soliklar uchun nihoyat bo'lgan anfusiy sayr akobir (buzrukvor)lar uchun bidoyatdir. Ofoqiy sayr matlubni o'zlikdan tashqarida qidirmoqdir[13]. Sayri anfusiy esa o'ziga kelmoq va o'z qalbi (dili) atrofida aylanmoqdir. Bu borada debdurlar. Bayt.

Hamchu nobiyno mabur har so'y dast.

FALSAFA

Botu dar zeri gilemast harchi hast.

Ma'nosi:

Ko'rlar kabi har tomonga qo'l cho'zaverma,

Har neki bor bo'lsa, sen bilan birga gilam ostida turibdi.[12]

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Musoxon Dahbidiyning naqshbandiya tariqatidagi rashhalarni o'ziga tarzda sharhlagan va ularga yangicha talqin berishga harakat qilgan. U, avvalo, Naqshbandiya tariqatining o'zga tariqatlardan mukammalroq ekani, boshqalardan ustunligi ko'rsatishga uringan va bu fikrlarini manbalar asosida isbotlab bergan. Darhaqiqat, naqshbandiya tariqatining islom olamida keng tarqalishi, va butun dunyo musulmonlari e'tiborida bo'lgani uning g'oyalarining xalqchil, inson kamoloti uchun juda zarur ekanidadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // - Toshkent, 2017. Xalq so'zi. № 196 (6860).
2. Saidov A. Hazrat Zangi ota. – Toshkent. Sharq, 2015.- B. 248.
3. Navro'zova G.N., Zoirov E.X. Buxoroi sharifning etti piri. –Toshkent: Muharrir, 2018. – B.80.
4. Faxriddin'Ali Safiy. Rashahot'ayn al-hayot. – Toshkent: FA Shl. Qo'lyozma, inv. № 632. – V. 63b.
5. Komilov N. Tasavvuf.–Toshkent, Movorounnahr-O'zbekiston, 2009. – B.371.
6. Xumuliy, Tarix-i Xumuliy. – V. 293a.
7. Muhammad Boqir. Maqomot / Mahmud Hasaniy tarjimasi.–T.:1993. – B. 77.
8. Orif Usmon. Buxoroyi sharifning etti piri. –T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2003. – B. 20-21;
9. Gulchehra Navro'zova. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, 2021. –B.98.
10. Maxdumi A'zam. "Risoi chahor kalima". Qo'lyozma.// O'z.RFAShI. N10626/XXVIII -V 254-256.
11. Maxdumi A'zam. "Murshidu-c-solikiyn". Qo'lyozma. // O'z.R.FAShI. N10626/XXIII -V. 192-195.
12. Musoxon Dahbidiy. Zubdat al-haqā'iq. – T.: FA ShI. Qo'lyozma, inv № 6576/I. – V. 27B.
13. Dahbidiy Musoxon. Navadir al-Maorif. – Toshkent: O'ZR FA ShI qo'lyozmalar asosiy fondi, inv. № 542/1. – V.58A-58B.
14. Koshifiy Faxriddin Ali bin Husayn Voiz as-Safiy. Ra'shahot ayn al-hayot. -T.: G'ulomiya toshbosmasi, 1389 h.y. -B 54.// Ibn Sino viloyat kutubxonasi. N1164/I.